

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 35 (1361), 2025-yil 19-fevral, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## TARIXIY TASHRIF IKKI VA KO‘P TOMONLAMA FORMATDAGI ALOQALARNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Kuvayt Davlati Amiri Shayx Mish‘al as-Sabohning taklifiga binoan 17-18-fevral kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Keyingi yillarda O‘zbekiston yangilangan tashqi siyosiy konsepsiyasi doirasida mamlakat an’anaviy sheriklari bilan tashqi aloqalarni mustahkamlash va xalqaro tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish bilan bir qatorda o‘z hamkorlari safini kengaytirish yo‘lidan bormoqda.

Mazkur tendensiya, ayniqsa, O‘zbekistonning Ko‘rfaz arab davlatlari bilan aloqalarni yangi bosqichga olib chiqqanida yaqqol aks etadi. Ahamiyatli jihati shundaki, ushbu mintaqa davlatlari bilan munosabatlar ham ko‘p tomonlama, ham ikki tomonlama formatlarda rivojlanmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 18-fevral kuni Al-Kuvayt shahriga tashrif doirasida ushbu mamlakat Valiahdi Shayx Saboh as-Saboh bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan Kuvayt o‘rtasidagi do‘stlik va keng qamrovli sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Subhat avvalida davlatimiz rahbari Valiahdga samimiy qabul va alohida e‘tibor uchun minnatdorlik bildirdi.

Kuni kecha bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi tarixiy muzokaralar, hukumat a‘zolari va yetakchi kompaniyalar bilan samarali uchrashuvlar ko‘p qirrali O‘zbekiston — Kuvayt munosabatlarini kengaytirish uchun mustahkam asos bo‘lishi ta‘kidlandi.

Oliy va yuqori darajada yaqin muloqot va almashinuvlarni davom ettirishga kelishib olindi. Investitsiyalarni jalb qilish uchun platformani tez fursatda ishga tushirish, agrosanoat majmui, transport va logistika, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, farmatsevtika, infratuzilma va boshqa yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishga kelishib olindi.

“Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” muloqoti doirasidagi tashabbuslarni o‘zaro qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qarotildi.

Qabul qilingan barcha qaror va kelishuvlar ijrosi ustidan birgalikda nazorat o‘rnatish masalasi kelishib olindi.

Davlatimiz rahbari tashrifning birinchi kunida Al-Kuvayt shahrida Amir Shayx Mish‘al as-Saboh bilan tarixiy muzokara, shuningdek, ushbu mamlakat hukumatining a‘zolari, yetakchi kompaniyalari va moliyaviy institutlari rahbarlari bilan samarali uchrashuvlar o‘tkazdi. Sammit yakunida Qo‘shma bayonot qabul qilindi, shuningdek, hamkorlikning turli yo‘nalishlari, jumladan, iqtisodiy sohada 4,9 milliard dollarlik salmoqli kelishuvlar to‘plami imzolandi.

Davlatimiz rahbari madaniy dastur doirasida “As-Salom” saroy-muzeyining Kuvayt xalqi madaniyati va tarixini aks ettiruvchi ekspozitsiyalarini ko‘zdan kechirdi.

Tashrif tadbirlari yakunlangach, Al-Kuvayt xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Valiahd Shayx Saboh as-Saboh va boshqa rasmiylar kuzatib qo‘ydi.

O‘zA

## AMALIY SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA‘KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-fevral kuni Kuvaytdan Toshkentga qaytgach, shaharsozlik sohasidagi xalqaro tadbirlarda ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi raisi, taniqli siyosatchi, Turkiya Respublikasining sobiq Bosh vaziri Binali Yildirimni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ko‘p qirrali hamkorlikni muvofiqlashtirish va ilgari surishda Oqsoqollar kengashining roli va faol ishtiroki ortib borayotganini hisobga olib, tashkilot doirasidagi har tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari yakunida qabul qilingan dastur va tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida amaliy sheriklikni kengaytirish va aloqalarni faollashtirish muhim ekani ta‘kidlandi.

TDT doirasidagi bo‘lajak tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ta‘kidlash joizki, Oqsoqollar kengashi

Turkiy davlatlar tashkiloti huzuridagi doimiy maslahat organi hisoblanadi.

Turkiy dunyo shaharsozlik kongressi 2002-yilda Anqara shahrida tashkil etilgan Muhandis va me‘morlar uyushmasi tomonidan o‘tkaziladi. Uyushma faoliyatida Samarqand va Navoiy shaharlari hokimliklari faol ishtirok etmoqda.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

## YOSHLARDA KATTA SALOHİYAT BOR

### Buyuk o‘zbek yo‘li

Bugungi yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarni ko‘rib ko‘nglimdan shoiringning mashhur misri o‘tdi: “Oh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi!”. Bizning davrimizda bunday e‘tibor qayerda edi, deysiz.



Davlatimiz rahbarining navbatdagi muloqoti yoshlar hayotida juda muhim voqea bo‘ldi. Uchrashuvda ishtirok etgan yigit-qizlar unutilmas katta taassurot bilan ketgani aniq. Navqiron avlod vakillari bilan suhbatda ko‘p masalalar muhokama qilindi. Takliflar tinglandi, tashabbuslar qo‘llab-quvvatlandi. Eng asosiysi, yoshlar o‘rtasida ishsizlikni bartaraf etishga e‘tibor qaratildi. Bu borada muayyan ishlar qilinmoqda. Ishsizlar kamayib borayotgani, ishsizlikdan xoli mahallalar soni ortayotgani yoshlar bandligiga qaratilayotgan e‘tibor samarasidir.

Ta‘lim mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan. Ilgari oliy ta‘limda bitta o‘rin uchun kamida 10 abituriyent kurashardi. Oliygo‘hlar soni oshgani har bir yoshning orzusi ushlab, talaba bo‘lishiga imkoniyat bermoqda. Xotin-qizlarning shartnoma to‘lovi ham qo‘llab-quvvatlandi. Turli yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishayotgan yigit-qizlar safi tobora kengaymoqda. Hozir dunyodagi nufuzli universitetlarda o‘zbekistonlik 1500 dan ziyod talaba tahsil olayotgani yangi avlod kadrlari yetishib kelayotganidan dalolat beradi.

Davomi 3-betda

## KENG KO‘LAMLI MUNOSABATLARNI YANADA YAXSHILASH UCHUN MUSTAHKAM ZAMIN

### XORIJIY EKSPERTLAR OLIY DARAJADAGI O‘ZBEKISTON — KUVAYT SAMMITI HAQIDA

#### Biz va dunyo

17-18-fevral kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Kuvaytga ilk rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi. Kuvaytda o‘tgan oliy darajadagi tarixiy muzokaralar, hukumat a‘zolari va yetakchi kompaniyalar bilan o‘tkazilgan samarali uchrashuvlar O‘zbekiston — Kuvayt o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

O‘zbekiston — Kuvayt keng qamrovli sheriklik munosabatlarini rivojlantirish to‘g‘risida qo‘shma bayonotning qabul qilinishi tashrifning muhim natijasi bo‘ldi. Shu bilan birga, oliy va yuqori darajadagi yaqin aloqalar va almashinuvlarni davom ettirish, Investitsiyalarni jalb etish platformasini tezroq ishga tushirish, qishloq xo‘jaligi, transport-logistika, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, farmatsevtika, infratuzilma va boshqa sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Davomi 2-betda

#### Sharh

Ilgari biror yurtdoshimizning orzularini qiziqib so‘rasangiz, aksariyati “Bir o‘zbekka nima kerak, chumchuqning iniday uyim bo‘lsa, pul yig‘ib farzandlarimga to‘y-tantana qilsam, yana bir-ikki so‘m o‘rtira olsam, mashina bo‘lsa ham yomon bo‘lmasdi”, deya javob qaytarardi.

## ASL QURUVCHILAR ISHLAYDI, FIRIBGARLAR SOHANI TARK ETADI

Qadimda barcha zamonlarning ilm mash‘allari — Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarni yetishtirib chiqargan millat o‘zining kichik tashvishlariga o‘ralashib qolgan. Mamlakatda aslida orzu ham deb bo‘lmaydigan, har bir insonning birlamchi, maishiy ehtiyojiga yetishish uchun kishilarning umri yetmasdi ba‘zida.

Chunki birgina uy sotib olmoqchi bo‘lsangiz, bir qancha muammolarga duch

kelardingiz. Misol uchun, poytaxtdan bir xonali uy olishni istasangiz, avvalo, “propiska” masalasi sizga to‘siq bo‘lardi. Uni hal qilgan taqdiringizda esa narx qiynardi. Tishingiz orasiga yig‘ib qo‘ygan mablag‘ingiz bordir ham deylik, ammo ko‘nglingizga yoqadigan yangi, zamonaviy, shinam uy topishning o‘zi amrimahol edi.

Bugun biz uchun bu eski muammo birlamchi emas. Boisi, Prezidentimizning ilk islohotlaridan

biri aynan shu — uy-joy qurish, uni sotish va sotib olish tizimini o‘zgartirish bo‘ldi.

Birinchi navbatda, “propiska” muammosi hal etildi. So‘ng esa keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari olib borilib, poytaxtimiz, viloyatlardagi shahar-tuman markazlarida zamonaviy, qulay ko‘p qavatli uylardan iborat, o‘ziga xos infratuzilmasiga ega kichik shaharchalar, “Yangi O‘zbekiston” massivlari bunyod etildi.

Davomi 4-betda

#### Nuqtayi nazar

### MAQSAD SARI DADIL ODIMLASH FURSATI

Bevosita barkamol avlod vakillari bilan ishlaganim bois, davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqotini katta qiziqish bilan kuzatdim. Chunki muloqot chog‘ida Prezidentimiz tomonidan ularni qo‘llab-quvvatlashga, o‘qib, hunar egallashga, umuman, jamiyatda o‘z o‘rnini topib olishiga oid ko‘plab takliflar, tashabbuslar ilgari surildi. Ularning ijrosi bo‘yicha aniq mas‘ullar belgilab berildi.

Davomi 5-betda









